



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 16-may, № 99 (8994)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK MUNOSABATLARI YANADA MUSTAHKAMLANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi vitse-prezidenti Javdat Yilmaz boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuksak martabali mehmon davlatimiz rahbariga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning salomi va samimiy tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalarida yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Turli darajalarda faol muloqot va almashinuvlar davom etayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo va investitsiyalar hajmi,

qo'shma korxonalar soni, aviaqatnovlar ko'paymoqda.

Toshkent shahrida o'tgan Hukumatlararo komissiya davlati navbatdagi yig'ilishi, biznes muloqoti va ko'rgazmaning samarali natijalari yuksak baholandi.

Tovar ayirboshlashni, shu jumladan, Imtiyozli savdo to'g'risidagi bitim doirasida tovarlar nomenklaturasini kengaytirish orqali yanada ko'paytirish bo'yicha o'zaro muvofiqlashtirish choralar ko'rish muhim ekanini ta'kidlandi.

Innovatsiyalar, energetika, sanoat,

farmatsevtika, to'qimachilik, turizm, ta'lim va boshqa sohalarida qo'shma loyihalarni ilgari surish, kooperatsiya loyihalarining yangi portfelli va madaniy-gumanitar almashinuv dasturini shakllantirish zarurligi ta'kidlandi.

Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig'ilishi kun tartibini tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi.

O'zA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

HAR QANDAY MAMLAKAT TARAQQIYOTI SOG'LOM VA BILIMLI AVLODGA BOG'LIQ

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 15-may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

– Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq, – dedi Prezident so'zining boshida. – Shu bois Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur.

Ijtimoiy sohalaridagi barcha sa'y-harakatlar ana shu maqsadlarga qaratilgan. Oxirgi 7 yilda maktabgacha va maktab ta'limi uchun mablag' 7 karra oshirilgan. Bu yil 60 trillion so'm ajratilgan. Maktablarda 1 millionga yaqin, bog'chalarda 1,5 million yangi o'rin yaratildi.

Malaka, til bilish, yangi baholash tizimi, fan olimpiadalarlari kabi mezonlar asosida o'qituvchilarga 10 dan ortiq ustamalar joriy qilindi. Bundan samarali foydalangan 60 ming o'qituvchi hozirda 8 – 12 million so'm maosh oladi. Bog'cha tarbiyachilari oyiligi 65 foizga oshib, maktab o'qituvchilari maoshiga tenglashdi. Yangi o'quv yilidan maktab direktorlari, o'rinsbosarlari va bog'cha mudiralarning ish haqi 7 – 10 million so'mdan oshadi. Ta'lim dasturlari eng ilg'or

mamlakatlar tajribasiga moslashtirilmoqda, darsliklar yangilanyapti, maktablarga zamonaviy jihozlar olib berilyapti. Endi muallimlar yangi metodikalarni o'zlashtirib, bolalarga yaxshi bilim berishi kerak. Buning uchun pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim sifatini oshirish zarur.

Yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish, to'g'ri tarbiyalash, zararli ta'sirlardan asrash ham dolzarb masalalardan.

Yig'ilishda sohadagi har bir yo'nalish atroficha tahlil qilinib, ustuvor vazifalar belgilandi. Maktab ta'limini yangi bosqichga ko'taradigan tashabbuslar ilgari surildi.

Avvalo, pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga e'tibor qaratildi. Bu borada Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti va uning 13 ta hududiy markazi qayta tashkil etildi. Nizomiy nomidagi oliyog'oh Milliy pedagogika universitetiga aylantirilib, uning rektori bir vaqtning o'zida maktabgacha va maktab ta'limi vazirining o'rinsbosari bo'ldi. Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tashkil qilindi.

Bu imkoniyatlar asosida barcha pedagogika oliyog'ohlari faoliyati tubdan o'zgartirildi. Masalan, Termiz pedagogika

instituti misolida aytganda, hozirgi fakultetlar o'rinda aniq, tabiiy, ijtimoiy, filologiya, amaliy fanlar, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bo'yicha 6 ta oliy maktab tashkil qilindi.

Fanlar soni maqbullashtirilib 20 tadan 15 taga, ta'lim yo'nalishlari 31 tadan 17 taga tushiriladi, o'quv yuklamasi 20 foizga qisqaradi. Yaqin hududidagi maktablar uning amaliyot bazasiga aylantiriladi.

Institutning xorijiy til sertifikatiga ega 20 nafar o'qituvchisi shu yil Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapur kabi davlatlarga malaka oshirishga yuboriladi. Kelgusi uch yilda barcha professor-o'qituvchilar chet elda o'qitiladi. “TOP – 100” talik universitetlarda malaka oshirish va ta'lim xizmatlarini olish to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida bo'ladi.

Hududlardagi malaka oshirish markazlari faoliyati ham kengaytiriladi. Ulardagi professor-o'qituvchilar AQSH, Buyuk Britaniya, Singapur, Germaniyaning ilg'or dasturlari asosida qayta tayyorlanadi.

Shu bilan birga, o'rta ta'limdagi 17 ta fanning har biri bo'yicha alohida tayanch maktablari tashkil etiladi. Tayanch maktabi o'qituvchisi Malaka oshirish markaziga

kelib, o'z yo'nalishida xalqaro dasturlar asosida chuqur tayyorlanadi, ularga trener maqomi beriladi. So'ngra bu trenerlar o'ziga birlashtirilgan hududda 25 nafar yetakchi o'qituvchini o'qitadi. Yetakchi o'qituvchilar esa o'z maktabidagi boshqa muallimlarning malakasini oshirib boradi.

Bundan tashqari, universitet, markaz va maktablardan muallimlar xorijsa malaka oshirishga yuboriladi.

Bugungi kunda xususiy oliyog'ohlarga keng yo'l ochilgan. Lekin ularda pedagogika yo'nalishidagi talabalarning 70 foizi maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim va filologiya bo'yicha tahsil o'laypti. Birortasida kimyo, biologiya va fizika bo'yicha muallim tayyorlanmaydi. Vaholanki, maktablarimizda aniq va tabiiy fanlar bo'yicha o'qituvchilar yetishmaydi.

Shu bois bundan buyon xususiy oliyog'ohlardagi pedagogik yo'nalishlar davlat institutlariga muvofiqlashtiriladi. Ulardagi pedagoglar va talabalar bilimi tashqi diagnostikadan o'tkaziladi. Bu orqali nodavlat oliyog'ohlarda pedagoglar tayyorlash sifati nazoratga olindi.



MUSTAQILLIGIMIZ HIMOYASI YO'LIDA JON FIDO ETGAN QAHRAMONLAR XOTIRASI QALBLARIMIZDA DOIMO YASHAYDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G'alaba bog'ida jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvda bildirgan fikrlari

Assalomu alaykum, qadrlı yurtdoshlar, muhtaram faxriylar, aziz yoshlar!

Avvalo, barchangizni 9-may – Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida erishilgan buyuk g'alabani 80 yilligi bilan chin qalbidan samimiy muborakkob etaman.

Xalqimizning “Mehr – ko'zda”, degan iborasida chuqur ma'no bor. Men sizlarning ko'pchiligingizni yaxshi taniyman, g'oyibona kuzatib boraman. Bugun sizlar bilan mana shunday ulug' ayyom kunlarda diydor ko'rishib turganimdan g'oyat xursandman.

Bizning eng katta boyligimiz – bu tinch va osoyishta hayotimiz, Vatanimiz mustaqilligi, xalqimizning omonligidir. Bugungi kunda barcha harakat va islohotlarimiz, hamma ezgu niyatlarimiz bir ulug' maqsadga – davlatimiz istiqloli, el-yurtimizning tinchligi va osoyishtaligini mustahkamlashga qaratilgan. Eng katta maqsad-muddaomiz – mehnatkash, mard va oliyjanob xalqimizni rozi qilishdan iborat.

Hozirgi vaqtda, o'zingiz televizorda ko'ryapsiz, shu yo'lida butun mamlakatimiz – bu Surxondaryo, Xorazm yoki Qoraqalpog'istonda bo'ladimi, Buxoro, Navoiy yoki Samarqandda bo'ladimi, Jizzax, Sirdaryo yoki Toshkentda, Andijon, Namangan yoki Farg'onada bo'ladimi, hatto eng olis tuman va qishloqlarimizda ham barcha-barcha yurtdoshlarimiz bunyodkor mehnat bilan band. Ilohim, mana shunday tinch va osoyishta hayotimizga ko'z tegmasin!

Bugungi kunda dunyo miqyosida vaziyat qanday tahlilali bo'lib borayotganini hammamiz ko'rib-bilib turibmiz. Faqat iqtisodiyotda emas, barcha-barcha sohalarida mavjud tahdid va xavf-xatarlarni hisobga olib, yo'limizni aniq belgilab, qanchalik qiyin bo'lmasin, faqat va faqat oldinga qarab borishni davrning o'zi talab qilmoqda. Eng muhim va asosiy masala – Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlab, odamlarimizni himoya qilishga, real himoya qilishga bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etishimiz, tanlagan yo'limiz to'g'ri ekanini aniq natija va yutuqlar asosida isbotlashimiz kerak.

Hech shubhasiz, bu yo'lida mard va matonatli xalqimizning Ikkinchi jahon urushi yillarida ko'rsatgan mislsiz jasorati, buyuk g'alabani yaqinlashtirishga qo'shgan beqiyos hisssasi biz uchun doimo kuch-g'ayrat va faxr-iftixor manbai bo'lib xizmat qiladi.

Albatta, hammangizning xabaringiz bor, jahon tarixidagi eng dahshatli ana shu qirg'in davrida O'zbekistonda yashagan 6 million 800 ming aholidan qariyb 2 million nafari frontga safarbar etilgan. Shundan 600 ming kishi jang maydonlarida halok bo'lgan, 200 ming nafar yurtdoshimiz bedarak ketgan, yana 100 ming odamning daragi hali ham topilgani yo'q, biz ularni izlashda davom etaymiz.

Ana shu 2 millionga yaqin jasur ota-bobolarimizning g'alabaga qo'shgan hisssasi juda katta bo'lib, buni hech narsa bilan o'chab, qiyoslab bo'lmaydi. Ulardan 214 ming nafari – e'tibor bering, 214 ming nafari – urushda ko'rsatgan ulkan jasorati uchun jangovar orden va medallarga, 301 nafari Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazavor bo'lgani, 70 nafar yurtdoshimiz uchala darajadagi “Slava” ordeni bilan taqdirlangan ham bu fikrni tasdiqlaydi. Mana shu haqiqatni yoshlarimizga, o'z oilamiz, mahallamiz va jamoamizga har kuni aytishimiz, tushuntirib borishimiz kerak. Chunki jang maydonlarida yovuz dushmanga qarshi kechayu kunduz mardona olishgan qahramon ajdodlarimizni qancha ko'p ulug'lasak, bugungi ozod va farovon hayotimizni shuncha ko'p qadrlagan bo'lamiz.

Biz mana shu G'alaba bog'ini bejiz barpo etganimiz yo'q. Bu ulug'vor majmua – xalqimizning fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasini yaqqol ko'rsatib turadigan qutlug' maskan, ulug' ziyoratgohdir. Ayni vaqtda bu farzandlarimizga ajdodlarimiz jasoratidan saboq beradigan o'ziga xos tarbiya o'chog'i, desak, to'g'ri bo'ladi. Eng muhimi, ushbu bog' xalqimizning Vatani himoyasi yo'lidagi qahramonlik an'analari barhayot ekanini, ularni har bir avlod

sharaf bilan davom ettirishi zarurligini barchamizga eslatib, ta'kidlab turadi.

Bunday bog' el-yurtimizning orzusi edi. Mana, odamlar bu tabarruk maskanga qanday intilishini ko'rsatadigan bir misol – o'tgan qisqa davrda bu yerga 3 milliondan ziyod kishi kelib, ziyorat qilib ketgan. Ularning orasida keksayu yoshlar, viloyatlardan, uzoq-uzoq qishloqlardan, mahallalardan kelgan odamlar, chet elliklar bor. Ular ushbu majmuadagi “Shon-sharaf” muzeyi va boshqa yodgorliklarda o'zining bobosi, otasi, buvisi yoki qarindoshlariga oid hujjatlar, rasm va lavhalarni ko'rib, xursand bo'lib, katta taassurot va g'urur bilan ketyapti. Bir so'z bilan aytganda, bu bog'ning kelgusida ezgu maqsadlarga xizmat qilishini inobatga olib, uni ham tarixiy, ham zamonaviy talabalar asosida mana shunday puxta barpo etganimiz har tomonlama to'g'ri bo'lganini bugun hayotning o'zi isbotlamqda.

G'alaba bog'i – bu hamisha barhayot qahramonlarimiz timsoli, o'zligimiz ifodasi, qanday sabot-matonatli xalq ekanimizning yorqin amaliy tasdiqidir.

Eng asosiysi, biz bu majmuani ham shaklan, ham mazmunan boyitib, kengaytirib boryapmiz. El-yurtimiz, xorijiy mamlakatlardagi do'stlarimiz, hamkorlarimiz bu borada katta yordam beryapti. Shu tariqa xalqimizning Ikkinchi jahon urushi va mustaqillik davridagi qahramonligi chuqur o'rganilib, yangi-yangi materiallar, hujjatlar topilib, e'lon qilib borilmoqda.

Ana shu ishlarining davomi sifatida bog' hududida “Xotira nuri” kompozitsiyasi barpo etildi. Ko'rib turganingizdek, parvoz qilayotgan bir juft qush shaklidagi bu monumental asar Ikkinchi jahon urushi jangog'larida jon olib-jon bergan ota-bobolarimiz hamda front ortida mehnat qilgan vatandoshlarimizning tengsiz jasoratini madh etadi. U avlodlar o'rtasidagi vorisliyk an'analarini namoyon etishi bilan ham g'oyat ahamiyatlidir.

Hech shubhasiz, mustaqillik yillarida Vatanimiz sarhadlarini daxlsiz saqlash, bugungi tinch va osoyishta hayotni himoya qilish yo'lida mardlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari ham bizning qahramonlarimiz. Ular biz uchun hamisha barhayotdir. Xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz mustaqil O'zbekistonning ham ana shunday qahramonlari borligini bilishi va ularni hech qachon unutmasligi zarur.

Men 2023-yil mart oyida Surxondaryoda sizlarning ko'pchiligingiz – ana shunday marhum askar va ofitserlarimizning oila a'zolari, yaqinlari bilan uchrashganman, fikr va takliflaringizni eshitganman. Mana shu qahramonlarimiz xotirasiga ham yodgorlik o'rnatask, degan orzu, kerak bo'lsa, armon meni doim o'ylandirib kelardi. Bu nafaqat mening, balki ana shunday botir va dovyurak ona yurt posbonlarini tarbiyalagan sizdek ota-onalarning, qolaversa, qahramonlarimizning ayollari va farzandlarining, butun xalqimizning orzusi edi, desak, albatta xato bo'lmaydi.

Xalqimizning ana shu bahodir o'g'lonlarimizga bo'lgan hurmat-ehtiromini ta'sirchan bir shaklda aks ettirish, hayotdan erta ketgan bu navqiron fidoyi insonlarning Vatanimizga qo'shgan mehri, sadoqati va jasoratini ana shu yodgorlikda ko'rsatish haqida o'z fikrlarimni aytib, arxitektor va haykaltaroshlar, tarixchi olimlar, ijodkor ziyolilar bilan juda ko'p muloqot qilganman.

Ana shunday intilishlarimiz natijasi sifatida bugun G'alaba bog'ida yangi bir yodgorlik – “Millat fidoyilari” monumenti barpo etilganini barchamiz ko'rib turibmiz.

Albatta, ushbu monumentda nomlari zarhal harflar bilan muhrlab qo'yilgan 196 nafar marhum harbiy xizmatchi va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining har biri, Ikkinchi jahon urush qatnashchilari kabi, hayotning ko'p-ko'p ne'matlaridan bahramand bo'lishga ulgurmagani. Bu sher-yurak o'g'lonlarimizning ham kelajak orzulari bor edi, ularni oldinda yaxshi va yorug' kunlar, ota-onasi, oilasi, shirindan-shirin farzandlari kutayotgan edi. Lekin mamlakatimiz istiqloli, xalqimiz tinchligiga nisbatan real xavf tug'ilgan paytda, ular bir

daqqa ham o'ylab o'tirmasdan, jonajon Vatanimiz himoyasi yo'lida o'zlarini qalqon qilishdi. Bu fidoyi harbiylar shu tariqa bugungi Yangi O'zbekiston uchun mustahkam zamin yaratib ketishdi. Shu bois biz ularning xotirasi, ruhi poklari oldida doimo qarzdormiz.

Men shu haqda ko'p o'ylayman. Nafaqat o'ylayman, joylarda bo'lganimda viloyat va tuman hokimlari, nuroniylarimiz, mahallalar va jamoatchiligimiz vakillarini qahramon jangchilarning oilalari haqida doimo g'amxo'rlik qilishga, ularning jasoratini ko'proq targ'ib etishga chaqirib kelaman.

Mana, bugungi marosimda hurmatli oqsoqollarimiz, nuroniylar, ko'pni ko'rgan akalimiz, o'z hayoti davomida doimo ko'pchilikka namuna bo'lib kelayotgan oliyanob insonlar qatnashmoqda. Ular tinch va yorug' kunlarning qadriini, bugungi nurli, fayzli hayot nimaning hisobidan kelganini boshqalardan ko'ra yaxshi tushunishadi.

Albatta, “Millat fidoyilari” xotira yodgorligini imkon qadar ko'proq odam kelib ko'rishga intiladi. Lekin biz bunday intilish va harakatlarni tashkiliy nuqtayi nazardan aniq yo'nalishga solishimiz zarur.

Yana bir bor aytaman, bu maskanda nomlari qayd etilgan bahodirlarimizning jasorati, nomlari va xotirasi el-yurtimiz qalbidan hech qachon o'chmaydi.

Siz, azizlar bu majmuaga birinchi bo'lib tashrif buyurgan insonlarsiz. Sizlardan iltimosim shuki, bu haqiqatni barchaga yetkazishimiz kerak. Bu yerni doimiy obod qilib, dovyurak farzandlarimiz ruhlarini shod etish – bizning muqaddas vazifamiz.

Bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlari asosida bu yerda katta ishlarni amalga oshirdik. Ayniqsa, sun'iy intellekt yordamida marhum jangchi o'g'lonlarimiz bamsoli tirik insondek gapiradi. Buni ko'rib, ularning ovoziini eshitib, farzandlari, ayollari, nabiralarlari ertaga qo'shnisi, do'sti yoki tanishiga borib, bizning otamiz, bobomiz hech qachon o'lmagan, hamisha tirik, deb ayta oladi.

Ushbu yodgorlikning beqiyos ahamiyati haqida gapirganda, men bir fikrni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. Ma'lumki, biz Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha keng ko'lamlı islohotlarni boshlagan birinchi kunlardanaq xalqimizni rozi qilish, “Inson qadri uchun” degan ezgu g'oyani amalga oshirishni o'zimiz uchun bosh maqsad etib belgiladik.

Inson qadriini e'zozlagan davlat hech qachon kam bo'lmaydi. Men mana shu boqqa, mana shu yodgorlikni tomosha qilishga kelgan kishi Vatani mustaqilligi uchun kurashgan, jon fido etgan odam aslo el-yurtning nazaridan chetda qolmasligini, kelgusi avlodlar ularni esidan chiqarmasligini chin yurakdan his etishini istar edim. Ana shundagina xalq hayotida fidoyilik va qahramonlik an'analari bardavom bo'ladi. Ana shundagina inson qadri va hayoti naqadar buyuk boylik ekanini yaqqol ayon bo'ladi.

Hayot bor ekan, butun jamiyatda albatta har jabhada kurash ketadi. Hozirgi kunda biz ham go'zal, fayzli va farovon hayot uchun, tinchlik uchun kurashyapmiz. Bu kurash har kuni, har daqiqada davom etmoqda.

Bu majmuada nomlari bitilgan harbiylarimiz mustaqillik yillarida Sariosiyo, Toshkent viloyatida, Andijonda sodir etilgan mudhish terrorchilik harakatlarga qarshi kurashda qanday jasorat ko'rsatganini ko'pchilik yaxshi biladi.

Fursatdan foydalanib, o'sha suronli yillarda terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda qahramonlarcha halok bo'lgan o'g'lonlarimizning bugungi tadbirimizda ishtirok etayotgan ota-onalari, ayollari va farzandlariga, qarindoshlariga xalqimiz nomidan, o'z nomimdan yana bir bor chuqur minnatdorlik bildiraman.

Takror aytaman: Vatanimiz va xalqimiz sizlarning farzandlaringiz, turmush o'rtoqlaringiz, otalaringiz, jigarlaringiz xotirasini hech qachon unutmaydi. Sizlarning farzandlaringiz, turmush o'rtoqlaringiz haqiqiy qahramon bo'lgan, sizlarning otalaringiz haqiqiy qahramon bo'lgan.



Qoʻmitalar hafta ichida

Hunarmandchilik:

XALQ AMALIY SANʼATI SAYQAL TOPADI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi Fan, taʼlim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qoʻmitasi bilan hamkorlikda “Hunarmandchilikni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash boʻyicha amalga oshirilayotgan ishlar va istiqboldagi rejalar” mavzuida davra suhbatlari oʻtkazildi.

Deputatlar, siyosiy partiyalar fraksiyalari aʼzolari, “Hunarmand” uyushmasi mutasaddilari hamda jamoalistlar ishtirok etgan tadbirda taʼkidlanganidek, keyingi yillarda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy sanʼatini rivojlantirish, hunarmandlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, aholini hunarmandchilik faoliyatiga keng jalb etish boʻyicha koʻlamdor ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada aholining hunar oʻrganishiga boʻlgan qiziqishi yanada ortib, “Usta – shogird” anʼanalarini rivojlantirish, mustaqil faoliyat yuritmoqchi boʻlgan hunarmandlarni moliyaviy va tashkiliy qoʻllab-quvvatlash tizimi yaratildi. “Hunarmand” uyushmasi aʼzolari esa mahsulot ishlab chiqarish va sotishda qatʼiy belgilangan soliqlardan ozod etildi.

Hunarmandchilik dasturlarini roʻyobga chiqarish, “Usta – shogird” anʼanalarini rivojlantirish maqsadida joylarda 77 ta hunarmandchilik markazi, 41 ta uy muzeyi va 4,6 mingdan ortiq ustaxonalari faoliyati yoʻlga qoʻyilgani tufayli oʻtgan yillar davomida hunarmandlar soni 9, shogirdlar soni esa 12 baravarga koʻpayib, sohada

340 mingdan koʻp aholi bandligini taʼminlashga erishildi.

Tadbirda sohadagi ijobiy oʻzgarishlar bilan birga, ayrim masalalar ham borligi diqqat markazida boʻldi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatining Gʻuzor tumanida joylashgan “Avgʻonbog” madrasasi hamda “Obixona va minor” majmuasi taʼmirlab holatga kelib qolgan. Jamoatchilik tomonidan “Avgʻonbog” madrasasining “Hunarmandlar uyi” sifatida faoliyat yuritishiga sharoit yaratish taklif etilayotgani aytiladi.

Ushbu saʼy-harakatlar natijasida milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy sanʼati yanada rivoj topishi, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy anʼanalarini toʻliq saqlab qolish, aholi, ayniqsa, yoshlar, ayollar va kam taʼminlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish, ularning bandligini taʼminlash mumkinligi aytib oʻtiladi.

Deputatlar tomonidan Xorazm viloyatida joylashgan “Yangiarq kulochilik markazi” va boshqa hunarmandchilik



obyektlari faoliyati oʻrganilganida, xomashyo yetishmovchiligi, mahsulotlar uchun ichki va tashqi bozorda marketing, logistika va savdo kanallari yetarli emasligi, raqobatbardosh savdo platformalari, onlayn doʻkonlar hamda koʻrgazmalarda ishtirok etish imkoniyatlari kamligi, infratuzilma bilan bogʻliq ayrim muammolar borligi aniqlangani taʼkidlandi.

Munozaralar davomida taʼmirlab holatga kelib qolgan tarixiy obyektlarning binolarini taʼmirlash, ularni hunarmandlar markazlariga aylantirish, hunarmandlarga imtiyozli shartlarda kredit berish orqali yangi asbob-uskunalar, xomashyo va ishlab chiqarish jihozlarini xarid qilish hamda yangi ishlab chiqarish sexlari, ustaxonalari tashkil etish boʻyicha bir qator takliflar berildi.

Tadbirda bildirilgan fikr-mulohazalar va takliflar asosida tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

ATROF-MUHIT MUHOFAZASIGA BARCHA BIRDEK MASʼUL

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi, Oʻzbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi, Iqlim oʻzgarishi oqibatlarini kamaytirish va “yashil” iqtisodiyotga oʻtishni tezlashtirish masalalari boʻyicha komissiya hamkorligida 15-may – Xalqaro iqlim kuniga bagʻishlangan davra suhbatlari oʻtkazildi.

Unda Qonunchilik palatasi deputatlari, vazirlik, idoralar mutasaddilari, sohada faoliyat yuritayotgan olim va mutaxassislar, fuqarolik jamiyati institutlari, xalqaro tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Davra suhbatida iqlim oʻzgarishi va uning mamlakatimizdagi ekologik muhit, iqtisodiyot, qishloq xoʻjaligi va aholi salomatligiga taʼsiri keng muhokama qilindi. Ishtirokchilar iqlim muammolariga yechim topishda qonunchilikni takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish hamda aholi va yoshlar oʻrtasida ekologik madaniyatni oshirish muhim ahamiyat kasb etishini taʼkidladi.

Shuningdek, soʻnggi yillarda mamlakatimizda iqlim oʻzgarishi, ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi yoʻnalishida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilangani, iqlim oʻzgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish borasida amaliy tadbirlar oʻtkazilayotgani eʼtirof etildi.

Mamlakatimizda iqlim oʻzgarishlari oqibatini yumshatishda “Yashil makon” umummilliy va “Mening bogʻim” loyihalari

doirasida har yili 200 million tup daraxt hamda butalar ekish yoʻlga qoʻyilgani, Orol dengizi tubida yashil maydon barpo etish, oʻrmonzorlashtirish ishlarini kengaytirish, suv resurslarini tejash va ularidan ekologik foydalanish, “yashil” iqtisodiyotni, shu jumladan, “yashil” energetikani rivojlantirishning oʻrni beqiyos ekanini alohida taʼkidlandi.

Tadbirda global tusdagi ekologik muammolarni bartaraf etishda saʼy-harakatlarni birlashtirish, ekologik innovatsiyalarni joriy qilish, ekologik toza, energiya samarador va resurtejjamkor loyihalarni amalga oshirish, “yashil” iqtisodiyotni amaliyotga keng tatbiq etish muhim ekanini aytilib, bu boʻyicha fikr-mulohazalar bildirildi. Atrof-muhit muhofazasiga barcha birdek masʼul ekanini, uni asrab-avaylash, yoshlar orasida ekologik taʼlim-tarbiyani yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqligi urgʻulandi.

Yakunda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik muammolarni bartaraf etish boʻyicha bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Xalq soʻzi”.

Fikr

Malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi kafolatlanadi

Mamlakatimizda sogʻliqni saqlash tizimini takomillashtirish, sohani jahon andozalariga moslashtirish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish, aholi salomatligini saqlash masalasiga ustuvor vazifa sifatida qaratilmoqda. Bu yoʻnalishda bajarilayotgan ishlar sifati va samaradorligi davlatimiz rahbarining doimiy eʼtiborida.



Sohada takomillashtirilgan tibbiy profilaktika va patronaj xizmati joriy qilinib, aholini guruh mansubligidan kelib chiqqan holda belgilangan muddatlarda tibbiy koʻriklardan oʻtkazish va salomatligini davriy kuzatib borish mexanizmlari amalga oshirilmoqda.

Davlat tomonidan bepul koʻrsatiladigan kafolatlangan tibbiy xizmatlar hajmi eng koʻp uchrayotgan kasalliklar va murojaatlardan kelib chiqqan holda shakllantirildi. Ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatda diagnostika usullari 500 dan, muolaja usullari esa 800 dan oshdi. Bugun 400 dan ortiq yuqori texnologik amaliyotlar viloyat va tumanlarda oʻtkazilayotir.

Bir paytlar yuqori texnologik amaliyotlar, kardiojarrohlik va transplantologik operatsiyalar faqat poytaxtimizda amalga oshirilgan boʻlsa, bugun viloyat, hatto tuman darajasigacha tushirilgani aholining ogʻirini yengil qilmoqda. Sohadagi oʻzgarishlarni eng oʻlis va chekka hududlarda yashovchi odamlarimiz ham oʻz hayotida, turmushida sezmoqda, his etmoqda.

Albatta, oʻtgan qisqa davrda tibbiyot tizimida katta ijobiy oʻzgarishlar boʻldi, tibbiy xizmat aholiga yanada yaqinlashdi. Lekin sohada hali yechimini kutayotgan ayrim muammolar ham borki, bu fuqarolarning sogʻligʻini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni samarali hal etishga toʻgʻri kelmoqda.

Yaqinda Prezidentimiz raisligida tahliliy, tanqidiy ruhda boʻlib oʻtgan videoselektor yigʻilishida tibbiyotning birlamchi boʻgʻini va ixtisoslashtirilgan muassasalarda xizmatlar sifatini yanada oshirish, dori vositalari isteʼmolini tartibga solish hamda tibbiy taʼlimni takomillashtirish boʻyicha ustuvor vazifalarga alohida eʼtibor qaratildi.

Davlatimiz rahbari tizimni toʻliq raqamlashtirish masalasiga toʻxtalib, belgilangan islohotlar qanchalik toʻgʻri boʻlmasin, tizim raqamlashmasa, kutilgan natijaga erishib boʻlmashligini, “elektron poliklinika”, “elektron shifoxona”ni joriy etish, birlamchi boʻgʻin va sugʻurta tizimini toʻgʻri tashkil qilish, tibbiyot xodimlarining bilim va amaliy koʻnikmasini yaxshilash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish orqali koʻzlangan maqsadlarga erishish mumkinligini taʼkidladi.

Joriy yilda elektron yoʻllanma asosida davolashga byudjetdan 1,1 trln. soʻm ajratilishi, endilikda bemorga respublika darajasida davolanish uchun berilgan yoʻllanma yagona elektron platformaga joylashtirilishi, platformada respublika markazi, boshqa viloyatdagi davlat va xususiy klinikalar ham ishtirok etishi bemorning oʻzi uchun qulay shifoxonani tanlash imkonini berish bilan birga, respublika markazlari va hududiy

shifoxonalari oʻrtasida erkin raqobat boʻlishiga zamin yaratadi.

Aholi salomatligini mustahkamlash, kasallikni erta aniqlash va davolashda birlamchi boʻgʻin juda muhim. Ushbu yoʻnalishdagi islohotlarning xalqimiz, ayniqsa, olis hududlardagi aholi talab va ehtiyojlarini chuqur oʻrganish hamda amalga oshirilishi ayni muddaodir. Albatta, bunda tibbiyot xodimlarining bilim va amaliy koʻnikmalarini kengaytirish, xodimlarni ragʻbatlantirish birlamchi boʻgʻinda tibbiy xizmat sifatini yanada yaxshilashga katta taʼsir koʻrsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, tumanlardagi oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar faoliyati qamrov jihatidan maqbulashtiriladi. Markaziy poliklinika esa tuman shifoxonasining maslahat-diagnostika boʻlimiga aylantiriladi. Barcha tor soha mutaxassislari shu yerda ishlaydi. Onalar oʻlimini qisqartirish maqsadida har yili 9 mln. nafar tugʻish yoshidagi ayol profilaktik koʻrikdan, 900 ming nafar homilador ayol prenatal skriningdan oʻtkaziladi. Poliklinikada akusher-ginekologlar soni 2 barobar koʻpaytirilib, har 3 ming bola uchun bittadan pediatri shtati yangidan qoʻshildi.

Bilamizki, bugun sogʻliqni saqlash sohasiga joriy etilgan sugʻurta tizimi doirasida har bir fuqaroning salomatligi kafolatlangan paket asosida Davlat byudjeti mablagʻi hisobidan sugʻurta qilinadi. Bu bejiz emas. Chunki tibbiy sugʻurta tizimining toʻliq yoʻlga qoʻyilishi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ulushi kengaytirishga, aholining ijtimoiy zaif toifalari vakillarining sifatli tibbiy xizmat bilan taʼminlanganlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida davlat tibbiy sugʻurtasi mexanizmlari joriy qilinsa, 2026-yilda bu tizim Surxondaryo, Fargʻona, Andijon, Toshkent, Namangan hamda Jizzax viloyatlarida ham amaliyotga tatbiq etilishi juda toʻgʻri va oqilona qaror boʻldi.

Yigʻilishda belgilab berilgan ustuvor vazifalar sogʻliqni saqlash sohasini tubdan takomillashtirish, tibbiy xizmat koʻrsatish sifati va samaradorligini oshirish, malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash, sohaga yangi boshqaruv usullarini joriy etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Bu, oʻz navbatida, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 48-moddasida belgilab qoʻyilganidek, har kim sogʻligʻini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega, degan konstitutsiyaviy huquqni taʼminlashga ham xizmat qiladi.

Mohira XOʻJAYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

ZARGARLIK — SANOAT ASOSIDA

Koʻzni qamashtiruvchi tilla bezaklarning har qanday turini yaratish anʼanaviy hunarmandchilikda eng mashaqqatli yomushlardan hisoblangan. Zero, zargar har bir buyumga koʻz nurini sarflab, ming jilo beradi.

Izlanish

Endilikda sohaga ilgʻor texnologiya kirib kelishi bilan ahvol butunlay oʻzgardi. Birinchilardan boʻlib Namanganda qoʻl mehnati orqali shugʻullanib kelingan zargarlik sanoat usuliga koʻchirildi.

Oʻz brendini dunyoga tanitayotgan “Gavhar jewel group” masʼuliyati cheklangan jamiyatida qimmatbaho metallar va toshlarni xarid qilish, qayta ishlash va boshqa barcha zargarlik amaliyoti bajariladi. Dastlabki loyihaning qiymati 6,5 million AQSH dollarini tashkil etib, Italiya, Germaniya, Turkiya va Rossiya davlati texnologik uskunalar olib kelindi. Yillik ishlab chiqarish hajmi 960 kilogramm zargarlik buyumlari, 1800 kilogramm oltin quymalari tayyorlashga teng quvvatlardan iborat boʻlib, ular bosqichima-bosqich oʻzlashtirilmoqda. Ayni paytda bu yerda 70 dan ziyod kishilar doimiy mehnat oʻrniga ega. Bunga qoʻshimcha 100 ga yaqin mahalliy zargarlik kooperatsiya asosida uyushib, ish olib bormoqda.

Davlatimiz rahbarining viloyatimizga oʻtgan yilgi tashrifi korxonamiz faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi, – deydi MCHJ bosh direktori Ombek Tillaboyev. – Suhbat chogʻida zargarlik sanoatini yanada



rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, ishlab chiqarish, koʻrgazma va savdo maydonlarini oʻz ichiga olgan maxsus zargarlik markazlarini tashkil etish boʻyicha zarur koʻrsatmalar berildi. Zamonaviy texnologik vositalar asosida jihozlantirilgan markaz, avvalo, viloyatda ish olib borayotgan mazkur soha vakillarini bir joyga uyushtirib, ular uchun qulay va unumli mehnat qilish maydonini yaratadi. Bu, oʻz navbatida, mahalliy zargarlik bilan kooperatsiya asosida ish olib borib, ilgʻor texnologiya yordamida oʻzlashtirilmoqda.

Umuman, oʻtgan yili Namangan zargarligida ishlab chiqarish rivojiga qanot boʻladigan katta oʻzgarishlar qaratilgan oʻtkazildi. Jumladan, bozor qoidalarini buzmaganda biznes

PEDAGOG SALOHİYATI — TAʼLIMDA SIFAT MEZONI

Kecha Prezidentimiz raisligida maktab taʼlimi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida maktab taʼlimi tizimidagi erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, sohadagi dolzarb muammolar tahlil qilinib, tizimni rivojlantirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar belgilab olindi.

Aks sado

Taʼkidlash joizki, taʼlim tizimi bugungi kun talablariga javob berishi uchun sohada sifatini taʼminlash muhim ahamiyatga ega. Eng avvalo, bu masala pedagogning mahoratiga uzviy bogʻliq. Shu maʼnoda soʻnggi yillarda mamlakatimizda pedagoglarning huquqiy maqomini oshirish borasida salmoqli ishlar qilindi. Xususan, Asosiy Qonunimizda Oʻzbekiston Respublikasida oʻqituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sogʻlom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning maʼnaviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida eʼtirof etilishi belgilab qoʻyildi. Bu esa jamiyatda oʻqituvchilarning har tomonlama qoʻllab-quvvatlanishi natijasida taʼlimning barcha turida yuqori



sifat oʻzgarishlariga erishilishi taʼminlanishiga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbari taʼlimda sifat boʻlishi uchun, eng avvalo, pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimi bunga tayyor boʻlishi kerakligini taʼkidlab, bu borada aniq vazifalarni belgilab berdi. Shu oʻrinda, yigʻilishda pedagoglarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan vazifalarning quyidagi muhim jihatlarga eʼtibor qaratish maqsadga muvofiq.

Eng avvalo, pedagoglarni rivojlantirish xoriy davlatlarda malakasini oshirish tizimini tashkillashtirish. Mazkur tizim

oʻqituvchilarga yuqori sifatli taʼlim standartlari, innovatsion metodlarni oʻrganish va tajriba almashish imkoniyatini beradi. Rivojlangan davlatlarda pedagoglarning malakasini oshirish kurslari zamonaviy metodika, psixologiya, pedagogika va axborot texnologiyalari asosida tashkil qilinadi. Xorijdagi malaka oshirish jarayonlarida oʻqituvchilar yangi pedagogik texnologiyalar, STEAM taʼlimi, inkluziv taʼlim va shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvni amalda koʻrib, oʻzlashtiradi.

Aniq sonlarga eʼtibor qaratsak, bir yil ichida 215 nafar oʻqituvchi Angliya, Fransiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreyadagi eng nufuzli universitetlarda malaka oshirdi. Eng muhimi, xususiy maktablar ham bu tizimga qoʻshilib, oʻqituvchilarini xorijga joʻnatmoqda. Kelgusida malaka oshirishga borayotganlarning 25 – 30 foizi xususiy maktablardan boʻlishi belgilandi. Joriy yilning oʻzida pedagogika oliygoʻhlariga malaka oshirish markazlaridan kamida 5 nafardan, har bir tumandan shunchadan muallimni

chet elga yuborish vazifasi qoʻyildi.

Yana bir muhim jihat – pedagoglar milliy malaka oshirish tizimini yangi bosqichga olib chiqish. Bu borada Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti faoliyatini takomillashtirish va pedagogika oliygoʻhlarini yangi bosqichga olib chiqishga alohida eʼtibor qaratildi. Xususan, ushbu institut transformatsiya qilinib, uning 13 ta hududiy markazi qayta tashkil etilishi belgilandi.

Bundan buyon pedagogika oliygoʻhlarini faoliyati tubdan oʻzgarishi belgilandi. Prezidentimiz buni Termiz pedagogika instituti misolida tushuntirib berdi. Ushbu oliygoʻhga Yangi Oʻzbekiston universitetidagi kabi xalqaro boshqaruv tizimi tatbiq etiladi. “TOP” xoriy oliygoʻhlar tajribasi asosida fakultetlar oʻrnida aniq, tabiiy, ijtimoiy, filologiya, amaliy fanlar, maktabgacha va boshlangʻich taʼlim boʻyicha 6 ta oliy maktab tashkil qilinadi.

Aniq fanlar maktabida Myunxen texnika universiteti taʼlim dasturlari joriy etiladi. Qolganlari esa Kembrij

universiteti talabari asosida toʻliq qayta koʻrib chiqiladi. Oliyohdagi fanlar soni ham maqbulashtirilib 20 tadan 15 taga, taʼlim yoʻnalishlari 31 tadan 17 taga tushiriladi. Oʻquv yuklamasi esa 20 foizga qisqaradi.

Shuningdek, Termiz shahri va tumanidagi 47 ta maktab oliygoʻhning amaliyot bazasiga aylantiriladi. 3 ta ixtisoslashtirilgan hamda yangi baholash tizimiga oʻtgan 12 ta maktab esa metodik baza boʻlib, oliygoʻh ularni zamonaviy laboratoriya bilan taʼminlaydi.

Mazkur tizim pedagogika oliygoʻhlarida xoriy davlatlarning eng nufuzli universitetlari tajribasining joriy qilinishi bilan bir qatorda, maktablar bilan ularning uzviy bogʻliqligi oshirishga xizmat qiladi.

Pedagoglarning mahoratini oshirish bu taʼlim tizimi yuksalishi va barqaror rivojlanishining asosiy tayanchidir. Pedagoglar qancha bilimli, innovatsion boʻlsa, taʼlim shuncha yuqori, samarali va zamonaviy boʻladi.

Dilmurod ARTIQOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

